



OLIIY TA'LIMDA ISLOHOTLAR – TARAQQIYOT POYDEVORI!

Nurimova Hilola Ulug'bek qizi

Annotatsiya. *Ushbu tezisda yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar va uning amaldagi natijalari haqida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *islohot, kredit modul tizimi, oliy ta'lim muassasi, nodavlat oliy ta'lim muassasi.*

Абстрактный. *В данной статье описаны широкомасштабные реформы, реализуемые в системе высшего образования в современных условиях Узбекистана, и их фактические результаты.*

Ключевые слова: *реформа, кредитно-модульная система, высшее учебное заведение, негосударственное высшее учебное заведение.*

Abstract. *This article describes the large-scale reforms being implemented in the higher education system in the modern conditions of Uzbekistan, and their actual results.*

Key words: *reform, credit-module system, higher education institution, non-state higher education institution.*

Sifatli oliy ta'lim malakali kelajak kadrlarini yetkazib beradi! Haqiqattan kelajak kadrlarining malakasi va salohiyati oliy ta'lim tizimining zamon bilan hamnafas holda olib borilishiga chambarchas bog'liq, ayni shuning uchun ham bugungi kunda oliy ta'lim islohoti tizimiga keng ko'lamda e'tibor berilmoqda. Xususan, mamlakatimizda ilm-fanga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilib, ta'lim sohasida keyingi olti yilda ulkan o'zgarishlar, yangilanishlarga boy bo'ldi. Bilim dargohlarining qiyofasi tubdan o'zgarib, moddiy-texnika bazasi mustahkamlandi. Bu o'z navbatida, ta'limning sifati va darajasini oshirgan holda, yoshlar o'rtasida oliy ta'lim olishga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytirdi.

Oxirgi olti-yetti yilda ta'lim tizimida uzoqni ko'zlab amalga oshirilgan islohotlar nafaqat mamlakatimizda katta ijobiy o'zgarishlarga olib keldi, hatto xalqaro maydonda ham yurtimiz ob'ro'-e'tiborini yangi bosqichga olib chiqdi. Sohaga doir bir qator qonunlar, Prezident farmon va qarorlari qabul qilindi. Birgina 2020 - yilda "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning qabul qilingani davlatimizning shu boradagi maqsadlarini aniq ifodalab berdi, desak mubolag'a emas. Ushbu hujjatda ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi. Masalan, qonunning 5-moddasida jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanishi belgilab qo'yildi. Bu har bir yosh o'zi istagan oliy ta'lim dargohida o'qiydi, ta'lim oladi, degani. Hujjatning 11-moddasidan esa oliy ta'lim bo'yicha alohida qoidalar o'rin olgan.

Yana shuni e'tirof etish kerakki, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham oliy ta'lim sohasida davlat xususiy sheriklikni





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish belgilangan. O'tgan qisqa davrda ushbu Konsepsiya sohada ta'lim sifatini oshirish yo'lida tub islohotlarni olib borishga imkon berdi

Bundan tashqari, xalqaro miqyosda ham ta'lim sohasida yetakchi o'rinlarni egallash maqsadida ko'plab tanlovlarda oliy ta'lim muassasalarining faol ishtiroki ta'minlanmoqda. Birgina misol, yurtimizdagi 28 ta oliy o'quv yurti TOR-1000 talik reytingga kirish uchun davogar sifatida qayd etildi. Ushbu reytingda universitetlarning 4 ta yo'nalishdagi samaradorlik ko'rsatkichlari baholandi. Tanlovda belgilangan ushbu mezonlardan ham ko'rinib turibdiki, oliy o'quv yurtlaridagi o'quv va tashkiliy samaradorlik sezilarli o'sib bormoqda.

Oliy ta'limda imkoniyatlar talabalar bilan bir qatorda bu tizimda faoliyat ko'rsatib kelayotgan professor – o'qituvchilarga ham qaratilmioqda. Chunonchi, so'nggi yillarda professor-o'qituvchilarning xorijdagi oliy ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot maskanlarida malaka oshirishi va stajirovka o'tashini ta'minlaydigan mexanizm yaratildi. Ularning oylik ish haqi miqdori oshirildi. Bu ularga xalqaro miqyosda ham davlat miqyosida ham o'zlarining malakalarini oshirib, salohiyatlarini namoyon etishlariga zamin yaratmoqda.

Oliy ta'limdagi eng muhim yutuq - bu oliy ta'limni qamrab olish darajasining ortishidir. 2023-yilda oliy ta'limni qamrab olish darajasi 42 foizga yetdi, bu 2016-yildagi (9 foiz) taqqoslangan ko'rsatkichdan deyarli besh barobar yuqori. Bugungi kunda universitetlardagi talabalar soni 1,3 millionni tashkil etadi. Mamlakatdagi universitetlar soni 2016-yildagi 77 tadan 2023-yilda 213 tagacha oshdi (shundan 97 tasi nodavlat yoki xorijiy universitetlar). Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2021-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan davlat oliy ta'lim muassasalarining kunduzgi bo'lim bakalavriyatiga kirish imtihonlarida eng yuqori ball to'plagan 200 nafar abituriyent uchun grant joriy etilgan. 2022/2023 o'quv yilidan xorijiy universitetlar va ularning filiallarida, shuningdek respublikada nodavlat universitetlarida 1000 grant punktlari ajratildi. Bundan tashqari, joriy o'quv yilidan Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tavsiyasiga ega bo'lgan oliy ma'lumotga ega bo'lmagan xotin-qizlarga umumiy parametrlardan tashqari 2000 ta davlat granti ajratilmoqda. 2023-yildan boshlab 10 ta oliy ta'lim muassasasi o'zini-o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazildi. Shuningdek, oliy ta'limga ajratiladigan davlat grantlari soni kamida 25 foizga oshirilganligi, oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar sonini 2 barobarga ko'paytirib, 2 mingtaga yetkazilishi oliy ta'limga qamrab olish ko'lamini yanada kengaytirdi.

Ta'lim tizimidagi eng muhim yangiliklardan yana biri oliygohlar va ta'lim tizimining quyi bo'g'inlari o'rtasidagi uzviylikni kuchaytirish maqsadida 65 ta akademik litsey oliy o'quv yurtlari tasarrufiga o'tkazilishi, shuningdek, 187 ta texnikum ham o'z yo'nalishi bo'yicha turdosh oliygoh va tarmoq korxonalariga birlashtirilishi bo'ldi. Buning natijasida abituriyentlarning oliy ta'lim muassasalariga kirish darajasi ortdi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Quvonarli natijalardan yana biri, oliy ta’limda raqobatni qo‘llab-quvvatlash va xususiy sektorni jalb qilish orqali 24 ta xorijiy hamda 27 ta nodavlat oliygohlar tashkil etildi. Shu asosda yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrov darajasi 9 foizdan 32 foizga oshirildi. Birgina Xorazm viloyatida so‘nggi 4 yil ichida 3 ta nodavlat xususiy ta’lim muassasalari tashkil qilinib viloyat miqyosida oliy ta’limga yoshlarni qamrab olish foizi oshdi. Bu oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi raqobatni kuchaytirib, sifatli ta’lim berishni ta’minlab beradi.

Baholash va davomat klassik tizimdan to‘liq kredit-modul tizimiga o‘tkazildi. Asos sifatida Yevropaning ECTS (European Credit Transfer and Accumulation System) tizimi qabul qilindi.

Shu bilan bir qatorda talabalarga transport vositalaridan foydalanish uchun imtiyozli chiptalarni xarid qilish maqsadida Transport vazirligining axborot tizimlariga integratsiya qilish natijasida talabalardan “talabalik guvohnomasi”ni qog‘oz ko‘rinishida talab qilishga chek qo‘yildi. 2022- yildan boshlab, talabalarga ijara pullarini qoplab berish maqsadida ma’lumotlarni Davlat soliq qo‘mitasining maxsus platformasiga taqdim etish orqali ijaraga beruvchi va talaba o‘rtasida elektron shartnomalar tuzish yo‘lga qo‘yildi. Ayni vaqtda, ushbu axborot tizimi oliy ta’lim muassasalarining ma’muriy boshqaruv, o‘quv, ilmiy va moliyaviy faoliyatini raqamlashtirishga qaratilgan bo‘lib 35 dan ortiq turli hisobotlar va statistik ma’lumotlar faqat elektron tarzda shakllantirilmogda.

Mazkur axborot tizimi orqali talabalar uchun bir qator xizmatlar yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, barcha bitiruvchi talabalarga diplom va uning ilovasini elektron tarzda olish imkoni yaratildi. Davlat oliy ta’lim muassasalarida to‘lov-kontrakt asosida tahsil oladigan talabalarga shartnomalarini to‘liq elektron shaklda taqdim etish xizmati joriy etildi.

Bu islohotlart natijasida oliy ta’lim muassasalariga ham, unda ta’lim oluvchi talabalar hamda professor-o‘qituvchilarga ham yengillik, qulaylik va keng imkoniyatlar yaratildi.

Muxtasar aytganda, so‘nggi 8 yillikda oliy ta’lim tizimida tubdan islohotlar o‘tkazilib, uning natijasida bugungi kunda sifatli ta’lim va malakali kadrlar yetishtirish imkoniga ega bo‘lindi va xorij bilan oliy ta’limda mustahkam aloqalar o‘rnatilib, tajriba almashish ishlari yo‘lga qo‘yildi, Bularning barchasi Yangilanayotgan O‘zbekistonda ta’limga yangicha yondashuvning natijasidandir!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. “O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi O‘zbekiston respublikasi Prezidentining Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>
3. <https://abt.uz/blog/oliy-talim-islohotlari-kengayib-borayotgan-imkoniyatlar>
4. https://xorazmstat.uz/uploads/press-reliz/2022/12/Oliy_talim2022.pdf